

JANUBIY KOREYANING MARKAZIY OSIYO STRATEGIYASIDA O'ZBEKISTON OMILI: "YANGI SHIMOLIY SIYOSAT" DAN "K-SILK ROAD" GACHA

Ilhomjonova Kamola Davron qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21394937>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Janubiy Koreyaning Markaziy Osiyoga nisbatan olib borgan siyosiy strategiyalarida O'zbekiston Respublikasining tutgan o'rni tahlil qilinadi.

Tadqiqot "Yangi Shimoliy siyosat" va "K-Silk Road" tashabbusigacha bo'lgan davrlar va shu siyosatlar doirasida Koreya Prezidentlari olib borgan ishlar izchilligi va transformatsiyasi xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilib, ularning O'zbekiston Respublikasi bilan munosabatlardagi o'zgarishlarga ta'sirini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, "Xartlend", Nordpolitik, "Evrosiyo tashabbusi", "Yangi sharqiy siyosat", "K-silk road", Strategik sheriklik.

Abstract. This article analyzes the role of the Republic of Uzbekistan in South Korea's political strategies toward Central Asia. The study presents a chronological sequence showing the continuity and transformation of the policies pursued by South Korean Presidents, spanning the periods leading up to the "New Northern Policy" (noted as New Eastern Policy in text) and the "K-Silk Road" initiative. Furthermore, it demonstrates their impact on the shifting dynamics of relations with the Republic of Uzbekistan.

Keywords: Central Asia, "Heartland", Nordpolitik, "Eurasia Initiative", "New Northern Policy", "K-Silk Road", Strategic partnership.

Kirish

Sovet Ittifoqi parchalangandan so'ng global geosiyosiy tizimda Markaziy Osiyo mintaqasining ahamiyati keskin ortib bordi. Xelford Makkinderning "Xartlend" nazariyasida ta'kidlanganidek, Yevroosiyo qit'asining markazida joylashgan ushbu mintaqa energetika resurslari, tranzit-transport imkoniyatlari va geostrategik joylashuvi tufayli yirik davlatlar - AQSH, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Janubiy Koreyaning tashqi siyosaiy diplomatiyasining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ushbu kontekstda Janubiy Koreyaning Markaziy Osiyoga, xususan O'zbekistonga nisbatan tashqi siyosati alohida ilmiy-amaliy qiziqish uyg'otadi, chunki u deyarli uch o'n yillik davomiylikka ega bo'lib, ketma-ket hukumatlar almashinuviga qaramay izchillikni saqlab kelmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, 2024-yilda Prezident Yun Suk Yeol tomonidan e'lon qilingan "K-Silk Road" tashabbusi Janubiy Koreyaning mintaqaviy strategiyasidagi navbatdagi bosqich bo'lib, uning ildizlari va mantiqiy asoslarini tushunish uchun ushbu strategiyaning tarixiy evolyutsiyasini - "Nordpolitik"dan tortib "Yangi Shimoliy siyosat" gacha bo'lgan davrni - kompleks tahlil qilish zarurati mavjud. Shu bilan birga, O'zbekistonning ushbu strategiyalar tizimida tutgan o'rnini alohida ajratib ko'rsatish mintaqaviy tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar nazariyasi nuqtai nazaridan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya

Tadqiqotda tarixiy-xronologik tahlildan olib borilgan siyosiy strategiya va tashabbuslarning ketma-ketligini aniqlashda; tizimli tahlil metodidan bu siyosatlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash uchun; qiyosiy-tahliliy metoddan ushbu siyosat va strategiyalarning bir-biridan farqili va o'xshash jihatlari, shuningdek bir-birini to'ldiruvchi jihatlari aniqlash uchun;

kontent analiz metodidan esa rasmiy hujjatlar, strategiyalar, deklaratsiyalar va ommaviy axborot vositalari materiallarini o'rganish uchun foydalanildi.

Ushbu maqolada manba sifatida ingliz, rus va o'zbek tillaridagi ilmiy adabiyotlar, rasmiy hujjatlar va davriy nashrlar, rasmiy saytlar va OAV materiallaridan foydalanildi.

Natijalar va tahlil

Janubiy Koreya tomonidan tashqi siyosat uchun dastlabki ishlab chiqilgan strategiyasi Nordpolitik bo'lib, 1988-yil 7-iyulda Prezident Roh Tae-woo tomonidan e'lon qilingan.

Siyosatdan asosiy maqsad Janubiy Koreyaning, u Shimoliy Koreya bilan tinch-totuv yashash va oxir-oqibat yarashishni muloqot va ishonchni mustahkamlash choralari orqali amalga oshirish, shu bilan birga Sovet Ittifoqi, Xitoy va ilgari Janubiy Koreyaning antikommunistik pozitsiyasi ostida yakkalanib qolgan boshqa sotsialistik davlatlar bilan munosabatlarni normallashtirishga qaratilgan edi¹. Ushbu siyosatning Markaziy Osiyo bilan bog'lanishi esa 1990-yil 30-sentabrda Sovet Ittifoqi bilan diplomatik aloqalar o'rnatilishi edi.

1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi va Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlar paydo bo'lishi bilan Koreya Markaziy Osiyo mintaqasiga e'tibor bera boshlagan edi. Lekin, mintaqaga to'g'ri va yaxlit yondashuv prezident No Mu Xyon (2003–2008) davrida boshlandi. 2004 va 2005-yillarda mos ravishda Qozog'iston va O'zbekistonga amalga oshirilgan ikkita tashrifdan so'ng, 2005-yil dekabr oyida Koreya hukumati Markaziy Osiyo konferensiyasini tashkil qildi, unda ham davlat, ham xususiy tashkilotlar vakillari ishtirok etdi. Buning natijasi 2006-yilda vazirlar mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Keng qamrovli Markaziy Osiyo tashabbusi" bo'ldi, uning maqsadi "Yevroosiyo qit'asiga olg'a siljish uchun Markaziy Osiyoda tayanch nuqtasini yaratish; va energiya resurslarining uzoq muddatli ta'minotini ta'minlash" edi².

Koreya va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarda hal qiluvchi burilish nuqtasi 2006-yil mart oyida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning KRga davlat tashrifi chog'ida, Strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolanishi bilan yuz berdi, bu sanoat rivojlanishidan tashqariga chiqib, energetika resurslari sektorlariga yo'naltirilgan yangi investitsiya faoliyati bosqichiga yo'l ochdi³.

2005-yildan 2008-yilgacha bo'lgan davrda har ikki davlat prezidentlari va vazirlarining tashrif almashinuvi ikki tomonlama munosabatlarni kuchaytirdi va ko'proq hamkorlik qilish uchun ishonch yaratdi. Natijada, savdo aylanmasi 2007-yilda 850 million dollarga yetdi va 2008-yilda 1 milliard dollardan oshdi⁴.

Navbatdagi Prezident Li Myon Bak 2009-yilda hokimiyatga kelganidan so'ng shu yilning mart oyida Seulning Osiyodagi ishtirokini kengaytirish uchun "Yangi Osiyo tashabbusi"ni, may oyida esa, Markaziy Osiyoning, xususan, O'zbekiston va Qozog'istonning strategik ahamiyatini ta'kidlash uchun "Yangi Ipak yo'li tashabbusi"ni e'lon qildi⁵. Seulning mintaqaga nisbatan avvalgi yondashuviga muvofiq, strategiya barcha mamlakatlarni farqlanmaydigan mintaqaviy massa sifatida birlashtirishdan tiyildi, aksincha, yondashuvni muayyan mintaqalar va mamlakatlarga moslashtirdi.

¹ Foster-Carter, A. (2014, March 26). A long & winding road: South Korea's "Nordpolitik" (Part I)

² Ko, J. N. (2009). President Lee's visit to Uzbekistan and Kazakhstan and future tasks. Korea Focus. Korea Focus, 17(3), 4–6.

³ Korea Times. (2012, August 30). Korea, Uzbekistan enter new partnership era. Korea Times.

⁴ Calder, K. E., & Kim, V. (2008). Korea, the United States, and Central Asia: Far-flung partners in a globalizing world. Korea Economic Institute (KEI) Academic Paper Series, 3(9), 1–11.

⁵ Herald, K., & With New Asia Initiative. (2009). Korea comes of age. Korean Herald.

Mustaqillikdan keyingi davrdagi tajribasiga tayanib, Koreya bir nechta asosiy mamlakatlarga (ayniqsa O'zbekiston va yaqin vaqtlarda Qozog'istonga) hamda qator strategik sektorlarga (asosan gaz, uran va neft-kimyo) e'tibor qaratdi⁶.

Li Myon Bakdan keyin, 2013-yilda hokimiyatga kelgan Prezident Pak mintaqqa bo'yicha o'zining iqtisodiy qarashlarini bayon etdi. Xususan, uning "Yevroosiyo tashabbusi" Yevropa va Osiyo bo'ylab energetika va logistika infratuzilmasini (temir yo'l tarmoqlari, neft va gaz quvurlari hamda elektr tarmoqlari kabi) bog'lashga chaqirdi. "Yagona qit'a, ijodkor qit'a va tinch qit'a" shiorlari ostida ushbu tashabbus ulkan Yevroosiyo qit'asi bo'ylab transport, energetika va savdo tarmoqlarining yagona tizimini loyihalashtiradi⁷.

2014-yilda Prezident Pak Kin Xening Toshkentga tashrifi chog'ida imzolangan yangi Qo'shma deklaratsiyada yanada rivojlantirish va chuqurlashtirishga kelishib oldilar. Pak O'zbekiston azaldan Buyuk Ipak yo'lining markazi bo'lib kelganini va bugungi kunda Janubiy Koreyaning Markaziy Osiyodagi eng yirik savdo sherigi ekanligini ta'kidladi.

2017-yil may oyida lavozimga kirishganidan so'ng, Prezident Mun Jye-in o'sha yilning sentyabr oyida "3-Sharqiy iqtisodiy forum"da shimoliy davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga, xususan, Uzoq Sharqdagi faol ishtirokiga qaratilgan Yangi shimoliy siyosatni e'lon qildi. Vizyonni amalga oshirish strategiyasi sifatida: a) 9 ta ko'priq (9-Bridge strategiyasi) orqali Rossiya bilan yangi hamkorlik modelini ilgari surdi, b) shimoliy iqtisodiy hamkorlik uchun maxsus tashkilot tuzdi, v) shimoliy hamkorlik uchun institutsional infratuzilmani yaratdi⁸.

Yevropa orqali Shimoliy Koreya, Rossiya va Markaziy Osiyo bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan Yangi shimoliy siyosat, Xitoy bilan hamkorlik qilgan holda tiyib turish va muvozanatni saqlash imkonini beruvchi Yevroosiyo shimoliy hamkorlik kamarini qurishga yo'naltirilgan. Bu Koreya hukumatining asosiy strategiyasidir. Oxirgi paytlardagi Rossiyaga qarshi sanksiyalar tufayli Koreya-Rossiya iqtisodiy hamkorligi kutilgan natijalarni bermayotgan bir paytda, Markaziy Osiyo Janubiy Koreyaning Yangi shimoliy siyosatida asosiy hamkor hisoblanadi⁹.

Bundan tashqari, yuqorida aytib o'tilganidek, Yangi shimoliy siyosat Markaziy Osiyo davlatlarining asosiy uzoq muddatli rivojlanish strategiyalari bilan bog'liqlikka ham katta e'tibor qaratmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, Koreya hukumatining rivojlanish strategiyasi Markaziy Osiyo davlatlarining shaxsiy rivojlanish strategiyalaridagi tashvish va manfaatlarini o'z ichiga oladi: O'zbekistonning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi (2017), Qozog'istonning 2050-strategiyasi (2012) va Turkmanistonning 2018-2024-yillarga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy dasturi (2017)¹⁰.

Bu shuni anglatadiki, Koreya hukumati Markaziy Osiyoning har bir davlati bilan uzoq muddatli va o'zaro manfaatli hamkorlik faqat ularning iqtisodiy rivojlanish rejalariga bevosita yoki bilvosita bog'langan va rag'batlantirilgan taqdirdagina saqlanib qolishi mumkinligini chuqur tushunadi.

Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Suk Yeol 2024-yil 10-iyunda Markaziy Osiyo respublikalari - Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbekistonga tashrif buyurdi.

⁶ Fumagalli, M. (2016). Growing inter-Asian connections: Links, rivalries, and challenges in South Korean–Central Asian relations. *Journal of Eurasian Studies*

⁷ Park, G. H. (2013). Remarks by president Park Geun-hye at the 2013 International Conference on Global Cooperation in the Era of Eurasia. Korea. net, 18.

⁸ Korea's Policy Briefing. (2019, October 23). New Northern Policy. Korea's Policy Briefing. korea.kr.

⁹ Lee, J.-E. (2020). South Korea's 'New Northern Policy' and 2019 summit diplomacy to Central Asia. *The Journal of International Relations*, 23(1), 123–145.

¹⁰ Northern Economic Cooperation Committee. (2018). Strategy of New Northern Policy.

Sayohatidan oldin u "K-Ipak yo'li" tashabbusini taqdim etdi va Koreyaning mintaqqa bilan kelajakdagi o'zaro munosabatlarini boshqarishdagi rolini ta'kidladi. Ushbu tashabbus Koreyaning uzoq yillik siyosatiga asoslansa-da, Markaziy Osiyo munosabatlarida yangi sahifa ochish istagini anglatadi.

Kamchiliklari va e'tibordan chetda qolgan ba'zi sohalariga qaramay, ushbu tashabbus mintaqaviy munosabatlar nuqtai nazaridan muhim qadamdir. Bu Janubiy Koreyaning mintaqaga bo'lgan o'tmishdagi qiziqishi 1972-yilgi Savdo bitimlari to'g'risidagi qonun bilan boshlangan bo'lib, u kommunistik mamlakatlarning mafkuraviy farqlariga qaramay, ular bilan savdo qilishni osonlashtirgan. Bu iqtisodiy pragmatizm oxir-oqibat Koreyaning tashqi siyosatiga ham ta'sir ko'rsatdi. Koreya Respublikasining sobiq prezidenti Chun Doo-hvanning 1983-yildagi Nordpolitik doktrinasini va sobiq prezident Pak Kin Xening 2000-yillardagi Yevrosiyo tashabbusiga asoslanadi. Safar energetika, transport va ishlab chiqarish kabi bir qancha muhim sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga, shuningdek, savdoni yaxshilashga qaratilgan edi. K-Ipak yo'li tashabbusi Markaziy Osiyoda infratuzilmani rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydigan va Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusiga alternativa bo'lib xizmat qiladigan strategik dasturdir.

Xulosa

Maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreyaning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosati 1988-yilgi "Nordpolitik"dan 2024-yilgi "K-Silk Road" gacha bo'lgan davrda uzluksiz evolyutsion rivojlanish yo'lini bosib o'tdi.

Har bir prezidentlik davri (No Mu Xyon, Li Myon Bak, Pak Kin Xe, Mun Jye-in, Yun Suk Yeol) o'ziga xos konseptual tashabbuslar - "Keng qamrovli Markaziy Osiyo tashabbusi", "Yangi Ipak yo'li tashabbusi", "Yevrosiyo tashabbusi", "Yangi Shimoliy siyosat" va "K-Silk Road" bilan tavsiflansa-da, ularning barchasida O'zbekiston barqaror ustuvor o'rin egallab kelgan.

O'zbekistonning ushbu strategiyalar tizimidagi markaziy o'rni bir necha o'zaro bog'liq omillar bilan izohlanadi: birinchidan, energetika xavfsizligi nuqtai nazaridan muhim bo'lgan uran, tabiiy gaz va boshqa mineral resurslarga egalik; ikkinchidan, O'zbekiston o'zining qulay geografik joylashuvi orqali mintaqaviy tranzit imkoniyatlarini ta'minlash qobiliyati; uchinchidan, milliy rivojlanish strategiyalarining Koreya tashabbuslari bilan institutsional darajada uyg'unlashtirilishi.

"K-Silk Road" tashabbusi, garchi tashqi ko'rinishda yangi loyiha bo'lib tuyulsa-da, mohiyatan Koreyaning ellik yildan ortiq davom etayotgan mintaqaviy siyosatining mantiqiy davomi va yangi geosiyosiy sharoitlarga moslashtirilgan shaklidir.

Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusiga muqobil sifatida shakllantirilgan ushbu tashabbus doirasida O'zbekiston-Koreya munosabatlarini yanada institutsionalashtirish, xususan strategik minerallar, yashil energetika va raqamli transformatsiya sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish istiqbolli yo'nalishlar sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Foster-Carter, A. (2014, March 26). A long & winding road: South Korea's "Nordpolitik" (Part I)
2. Ko, J. N. (2009). President Lee's visit to Uzbekistan and Kazakhstan and future tasks. Korea Focus. Korea Focus, 17(3), 4-6.

3. Korea Times. (2012, August 30). Korea, Uzbekistan enter new partnership era. Korea Times.
4. Calder, K. E., & Kim, V. (2008). Korea, the United States, and Central Asia: Far-flung partners in a globalizing world. Korea Economic Institute (KEI) Academic Paper Series, 3(9), 1–11.
5. Herald, K., & With New Asia Initiative. (2009). Korea comes of age. Korean Herald.
6. Fumagalli, M. (2016). Growing inter-Asian connections: Links, rivalries, and challenges in South Korean–Central Asian relations. *Journal of Eurasian Studies*
7. Park, G. H. (2013). Remarks by president Park Geun-hye at the 2013 International Conference on Global Cooperation in the Era of Eurasia. Korea. net, 18.
8. Korea's Policy Briefing. (2019, October 23). New Northern Policy. Korea's Policy Briefing. korea.kr.
9. Lee, J.-E. (2020). South Korea's 'New Northern Policy' and 2019 summit diplomacy to Central Asia. *The Journal of International Relations*, 23(1), 123–145.
10. Northern Economic Cooperation Committee. (2018). Strategy of New Northern Policy.